

**BUDJET MABLAG‘LARINING MAQSADLI SARFLANISHIDA XAVFLARNI
BOSHQARISH TIZININGNING IQTISODIYOTMIZ RIOJIGA TA’SIRI**

Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li
Iqtisodiyot fanlari, bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jamoat xavfsizligi universiteti xodimi
paa0077uzsher996@gmail.com
+998909019121

Annotatsiya:

Ushbu maqolada audit tizimi, audit tizimining so‘nggi yillarda tartibga solinishi va normalari bo‘yicha amala oshirilayotgan islohotlar va ularning zarurligi keng yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Audit, Davlat moliyaviy nazorati, Ichki audit, tashqi audit, xavflar, xavflarni boshqarish, xavf darajasini aniqlash, xavflarni boshqarish qo‘mitasi

Introduction

**ВЛИЯНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ НА ЦЕЛЕВОЕ
РАСХОДОВАНИЕ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В НАШЕЙ ЭКОНОМИКЕ**

Аннотация:

В данной статье представлен всесторонний обзор системы аудита, реформ, проведенных в последние годы в области ее регулирования и стандартов, а также их необходимости.

Ключевые слова: Аудит, Государственный финансовый контроль, Внутренний аудит, Внешний аудит, Риски, Управление рисками, Определение уровня риска, Комитет по управлению рисками

**IMPACT OF THE RISK MANAGEMENT SYSTEM ON THE TARGETED
SPENDING OF BUDGET FUNDS ON OUR ECONOMY**

Abstract:

This article provides a comprehensive overview of the audit system, the reforms implemented in recent years in terms of its regulation and standards, and their necessity.

Keywords: Audit, State Financial Control, Internal Audit, External Audit, Risks, Risk Management, Risk Level Determination, Risk Management Committee

Kirish:

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va unumli foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish bo‘yicha tub islohotlar

amalgama oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirib borilmoqda va ushbu ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muhtaram prezidentimizning bir qator farmon, farmoish va qarorlarning, qonunosti hujjatlarning amaliyotga kiritilishi ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun dastur amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, **“Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyuldagi 100-sonli Farmoni, **“Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 29 aprel, 279-sonli qarori, **“Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 dekabr, 252-sonli Farmonlarining tasdiqlanishi Respublikamizda islohotlarni amalga oshirish uchun yo‘naltirilayotgan budjet mablag‘larining, davlat tashqi qarzlari hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘larning samaradorligi va islohotlarning natijadorligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlarning budjet xarajatlari nazoratini yanada kuchaytirish uchun sohada ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, raqamlashtirish ko‘lamini kengaytirish, davlat auditi va moliyaviy nazorati sifatini oshirish uchun sohada malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish uchun dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu kabi chuqur o‘ylangan va o‘z natijasini tezda ko‘rsatuvchi normativ hujjatlarining qabul qilinishi natijasida budjet mablag‘larining taqsimlanishi va samarali foydalanish ustidan komplyans nachorat, audit nazorati va moliyaviy nazorat samarali tashkillashtirib borilmoqda.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha chuqur o‘ylangan har tomonlama mukammal strategiyamiz maqsadlariga erishishda Respublika budjeti mablag‘laridan maqsadli va unumli foydalanishni ta‘minlash uchun davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish, budjet mablag‘larini taqsimlovchi vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, shuningdek, jamoatchilik ishtiroki va nazoratini kengaytirish maqsadida Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida moliyaviy va boshqa xavflarni barvaqt aniqlash, baholash va boshqarishning yaxlit tizimini joriy etildi, shuningdek, davlat mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator me‘yorlar ya‘ni:

- O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti ijrosini tashqi auditdan o‘tkazish va natijasi bo‘yicha tegishli xulosalarni tayyorlash;
- 2025 yildan boshlab ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik soliq to‘lovchilar faoliyatini auditdan o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;
- ijobiy xalqaro tajribadan kelib chiqib, strategik va axborot texnologiyalari auditi turlarini joriy etish;
- Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotni Hisob palatasiga tashqi audit o‘tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5 martiga qadar yuborish tartibini belgilash tartibi kiritildi.

Moliyaviy faoliyat va davlat mablag'larini maqsadli sarfi ustidan yana bir nazorat organ **Xavflarni boshqarish qo'mitasining** tasis etilishi iqtisodiyotimiz rivoji uchun qo'yilgan yana bir dadil qadamlardan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xavflarni boshqarish qo'mitasi - respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni boshqarish maqsadida ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda tuziladigan qo'mita.

Xavflar respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni aniqlash va baholash, kamaytirish, oldini olish, bartaraf etish, hamda doimiy monitoring qilib borish maqsadida boshqariladi.

Xavflarni boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- xavflarni aniqlash;
- xavflarni baholash;
- xavflar reestrini shakllantirish;
- xavflarni kamaytirish, oldini olish, bartaraf etish choralarini ko'rish;
- xavflar monitoringi;
- xavflarni boshqarish yuzasidan hisobot

Xavf darajasi quyidagi formula asosida amalga hisoblanadi:

$$XD = \sum_{i=1}^n (Bx_{toi} \times Vx_{toi}) \times \sum_{j=1}^m (Bx_{tej} \times Vx_{tej})$$

bunda:

XD — xavf darajasi;

Bx_{toi} — xavf ta'sirini hisoblashda qo'llanadigan omilga berilgan ball;

Vx_{toi} — xavf ta'sirini hisoblashda qo'llaniladigan omilga belgilangan vazn;

i — xavf ta'sirini hisoblashda qo'llaniladigan omilning tegishli tartib raqami;

n — xavf ta'sirini aniqlash uchun qo'llaniladigan omillar soni;

Bx_{tej} — xavf ehtimolini hisoblashda qo'llaniladigan omilga berilgan ball;

Vx_{tej} — xavf ehtimolini hisoblashda qo'llaniladigan omilga belgilangan vazn;

j — xavf ehtimolini hisoblashda qo'llaniladigan omilning tegishli tartib raqami;

m — xavf ehtimolini aniqlash uchun qo'llaniladigan omillar soni.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki iqtisodiyotimiz ruvoji vatan ravnaqi uchun muhtaram prezidentimiz boshchiliklarida bir tanu bir jon bo'lib harakat qilmog'imiz zarur. Ushbu amaliyotga kiritalayotgan dasturamal konunlar esa har qanday davlat budjet mablag'lari oluvchilarining zimmasida ma'suliyat xissini tug'diradi va buning natijasida shaffof adolatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Biz bu kabi islohotlar natijasida davlat mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni o'rganamiz. Qachonki javobgarlik bo'lsa masuliyat bo'ladi, masuliyat bor joyda esa rivojlanish, o'sish, yuksalish bo'lishi mumkin. Davlat moliyaviy nazorat tizimi budjet tizimida juda ham e'tiborli va og'riqli nuqtasi bo'lganligi sababli ham tub islohotlar amalga oshirilib samarali natija beruvchi normativ hujjatlar qabu qilinmoqda. Bu kabi harakatlarning barchasi mustaqil O'zbekistonimizni Jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shib iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zбекиston Respublikasi Budjet kodeksi
2. “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2025 yil 29 aprel, 279-son <https://lex.uz/docs/7503919>
3. “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Toshkent sh., 2024 yil 10 iyul, PF-100-son <https://lex.uz/docs/7015258>
4. “Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Toshkent sh.,
5. 2025 yil 18 dekabr, PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/7926706>
6. [www. buhgalt.ru](http://www.buhgalt.ru)
7. [www. cer.uz](http://www.cer.uz) (Iqtisodiy izlanishlar markazi)
8. [www. dissertation.ru](http://www.dissertation.ru) [www. gcomim.uz](http://www.gcomim.uz)